

QARZ SHARTNOMASI

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 2- bosqich talabasi

Po'latova Sug'diyona G'ayratovna

Annotatsiya: maqolada qarz shartnomasi, uni tuzish hamda uni ijro etishda yuzaga keladigan muammolar va unga yechimlar to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Qarz, qarz shartnomasining shakli, shartnomaning mazmuni, xulosa.

Qarz shartnomasi fuqarolik huquqining eng qadimi shartnomalaridan biri bo'lib, hali kishilik jamiyatidagi ijmitomiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlar u qadar rivojlangan paytlardayoq, muayyan muddatga moddiy ashyolarni qaytarish sharti bilan berib turish munosabatlari shakllangan edi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, fuqarolar o'rtaida qarz shartnomasi, agar bu qarzning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi lozim. Biroq, qarz miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan kam bo'lganda ham taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda tuzilishi mumkin. Qarz munosabatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, kelgusida turli nizolar kelib chiqishini oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida qarz shartnomasi namunasi tayyorlangan bo'lib, namunadagi so'rovnomalar aniq, ravon va turlicha talqin qilinmaydigan so'zlardan foydalangan holda to'ldirilishi, kelgusida nizolar va tushummovchiliklar kelib chiqishining oldini oladi.

Qarz oluvchining pul va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolardan foydalanishi faqatgina ularni iste'mol qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, qarz oluvchiga qarz ob'ektidan foydalanish muddati tugagandan so'ng aynan shu pul yoki ashyoni qaytarish majburiyati yuklanishi mumkin emas. Qarz shartnomasining konstruksiyasiga yaqin bo'lgan ba'zi shartnomalar (tekin foydalanish, mol-mulkni ishonchli boshqarish)da esa shartnoma ob'ekti foydalanish jarayonida o'zining xususiyatlarini

yo'qotmaydigan individual – belgilangan ashyolar bo'lganligi sababli aynan olingan ashyoning o'zi qaytarilishi talab qilinadi.¹¹

Qarz shartnomasining tushunchasi haqida gapirganda avvalo qonun hujjatlariga muvofiq nimalar qarzga berilishi mumkinligi xususida to'xtalib o'tish lozim. Umumiyligida ko'ra fuqarolik muomilasidan chiqarilmagan ashyolargina shartnomalarining ob'ekti bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligidagi qarz shartnomasining ob'ektlariga nisbatan quyidagi talablar quyiladi:

1.Ob'ektning fuqarolik muomalasida bo'lishi;

2.Shartnomalarini pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar bo'lishi;

3.Qarz beruvchining ob'ektga nisbatan mulkdorlik yoki ashyoviy huquqining mavjud bo'lishi.

Fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi shart, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganida esa summasidan qat'i nazar yozma shaklda tuzilishi shart.

Fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning miqdori eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganida esa, summasidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi shartligi belgilab qo'yilgan. Bundan esa, eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'limgan pul summasi qarzga berilgan holatlarda shartnomalarini og'zaki shaklda ham tuzilishi mumkinligi anglashiladi.

Amalda qarz shartnomasi qarz oluvchi tomonidan qarz beruvchiga tilxat berish orqali rasmiylashtiriladi. Bu qoida ham faqat fuqarolarga nisbatan qo'llanadi. Chunki, yuridik shaxsning rahbari yoki bosh hisobchisi va vakil sifatida biror xodimi yuridik shaxsning muayyan summadagi pulni qarzga olganligi xususida tilxat berish huquqiga ega bo'lolmaydi. Qarz tilxati qarz oluvchining imzosi bilan tasdiqlanadi va prosessual jihatdan dalilga tenglashtiriladi.

¹¹Fuqarolik huquqi: Darslik. || qism TDYU nashriyoti, 2019. 684 bet.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi Qarz shartnomasini farqlaydigan bo'lsak, deyarli tafovutlar kuzatilmaydi. Rossiya Fuqarolik kodeksiga ko'ra:

808-modda

Fuqarolar o'rtasidagi qarz shartnomasi, agar uning miqdori o'n ming rubldan oshsa va qarz beruvchi yuridik shaxs bo'lgan taqdirda, miqdoridan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi kerak.

Qarz shartnomasi va uning shartlarini tasdiqlash uchun qarz oluvchidan tilxat yoki qarz beruvchi tomonidan ma'lum miqdorda pul yoki ma'lum miqdordagi narsalarni o'tkazganligini tasdiqlovchi boshqa hujjat taqdim etilishi mumkin.

Qarz shartnomasi 807-modda

1. Qarz shartnomasi bo'yicha bir tomon (qarz beruvchi) boshqa tomonga (qarz oluvchiga) pul mablag'larini, umumiylar bilan belgilanadigan narsalarni yoki qimmatli qog'ozlarni, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir xil miqdorda qaytarish majburiyatini oladi. pul (qarz summasi) yoki teng miqdorda ularga bir xil turdag'i va sifatli narsalar yoki bir xil qimmatli qog'ozlar olingan. Agar ssuda shartnomasida qarz beruvchi fuqaro bo'lsa, shartnomaga kredit summasi yoki kredit shartnomasining boshqa predmeti qarz oluvchiga yoki u ko'rsatgan shaxsga o'tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

2. Chet el valyutasi va valyuta qiymatlari ushbu Kodeksning 140, 141 va 317-moddalari qoidalariga muvofiq Rossiya Federatsiyasi hududida kredit shartnomasining predmeti bo'lishi mumkin.

3. Agar ssuda shartnomasiga ko'ra qarz beruvchi ssuda berish majburiyatini olgan bo'lsa, berilgan ssuda to'lanmaganligini aniq ko'rsatuvchi holatlar mavjud bo'lsa, u shartnomani to'liq yoki qisman bajarishni rad etishga haqli.

Qarz berish yoki olishni rad etish 821-modda Agar qarz oluvchiga berilgan summa o'z vaqtida qaytarilmasligini aniq ko'rsatuvchi holatlar mavjud bo'lsa, kreditor qarz oluvchiga ssuda shartnomasida nazarda tutilgan kreditni to'liq yoki qisman berishni rad etishga haqli. 2. Qarz oluvchi, agar qonun hujjatlarida, boshqa qonun hujjatlarida yoki kredit shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, uni berish shartnomasida belgilangan muddatdan oldin kreditorni xabardor qilgan holda kreditni to'liq yoki qisman olishdan bosh tortishga haqli.

3. Agar qarz oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan ssudadanmaqsadli foydalanish

majburiyatini buzsa (814-modda), qarz beruvchi ham shartnoma bo'yicha qarz oluvchiga keyingi kredit berishni rad etishga haqli. Keltirib o'tilgan moddalardan ko'rinish turibdiki shartnoma mazmuni, shartlari, predmeti hamda shaklida ikkala davlat kodeksida ham deyarli farqlar kuzatilmaydi. Lekin Rossiya kodeksi 821-moddasida keltirilgan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar mavjud. Ya'ni O'zbekiston Fuqarolik kodeksida qarz berish yoki olishni rad etish mazmunidagi moddalar qayd etilmagan.

Vaholanki O'zbekiston Fuqarolik qonunchiligi Qarz va Kredit bobi, qarz bo'limiga ham ushbu mazmundagi moddalar kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki qonunchiligidizda faqat shartnoma buzilgan holatlarda javobgarlik, da'volashish, shartnomani buzgan tarafdan summani foizi bilan undirish kabi hollar ko'rsatilgan. Ammo shartnoma tuzayotgan taraf summani qaytarishga qobiliyatlimi yoki qobiliyatsizligi holatlari e'tiborga olinmagan. Shu bois qonunchiligidizga xuddi shu jihatlarni kiritishimiz lozim. Negaki qonunchilikka qarz berish yoki uni rad etish to'g'risida moddalar kiritilsa, qarz shartnomasi bo'yicha muammolar soni kamayadi. Ya'ni to'lovga qobiliyatli taraf qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajaradi va shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar kamayishiga olib keladi. Endi to'lovga qobiliyatsiz tomon bilan tuzilgan shartnomada, albatta, nizolar kelib chiqadi. Ya'ni qarzni vaqtida qatarmaslik, muddati o'tib ketishi holatlari. Shu kabi nizolar kelib chiqishini oldini olish maqsadida Xorij mamlakatlari tajribalaridan foydalansak (Rossiya Fuqarolik kodeksi Qarz shartnomasi), albatta, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. || qism TDYU nashriyoti, 2019. 684 bet.
2. <https://yurxizmat.adliya.uz/oz/document/848> sayti.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
4. ГРАЖДАНСКИЙ кодекс РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ(ROSSIYA Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi tarjimasi).